



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 18-mart, seshanba,
33 (24.059)-son

O'zbek xalq
maqoli

Bersang —
olasan,
eksang —
o'rasan

Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident qaroriga ko'ra



Imom Moturidiyning 1155 yilligi keng nishonlanadi

Davlatimiz rahbari shu yil 14-mart kuni "Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to'g'risida" qaror qabul qildi.

Qaror bilan, 2025-yil aprel oyida Samarqand shahrida "Moturidiylik — bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifat ta'limoti" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazish; xorijlik tadqiqotchilar o'rtasida moturidiylik ta'limoti bo'yicha ilmiy tanlov o'tkazish, g'oliblar ishtirokida O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy uchrashuv va seminar-treninglar tashkil etish; Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" va "Kitob at-tavhid" asarlari va moturidiylik ta'limotiga oid manbalarning o'zbek va xorijiy tillardagi ilmiy-izohli akademik tarjimalarini nashr etish; Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligiga bag'ishlangan esdalik suvenirlerini muomalaga chiqarish hamda pochta markalari, taqvimlar, buyuk mutafakkirning hayoti va ilmiy merosini yoritib beradigan boshqa ko'rgazmali

axborot vositalari turkumini yaratish; Imom Moturidiyning serqirra hayot yo'li va ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini ochib beradigan badiiy-publitsistik film yaratish belgilandi. Shuningdek, Samarqand viloyatida Imom Moturidiy va moturidiylik ta'limoti yo'nalishida faoliyat olib borgan alomatlarning hayoti, ilmiy va ijodiy merosiga bag'ishlangan asarlarning nodir qo'lyozma va nashr nusxalari hamda kitoblari ko'rgazmasi tashkil etiladi. Samarqand shahridagi **Abu Mansur Moturidiy majmuasini qayta ta'mirlash va obodonlashtirish** ishlari amalga oshiriladi. Joriy yilning may va oktabr oylarida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda ilmiy maqolalar tanlovi o'tkaziladi. Imom-xatiblar hamda diniy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida esa "Moturidiylik ta'limoti bilimdoni" tanlovi tashkil etiladi.



AKSAR MUROJAATLARNI HOKIM O'ZI O'RGANMOQCHI

Samarqand shahridagi "Vatanparvar" bog'ida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyevning sayyor qabuli bo'lib o'tdi.

Unda fuqarolar hokim va viloyat darajasidagi rahbarlarga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Jumladan, Samarqand shahri Mevali mahallasida istiqomat qiluvchi M.Otaxonova viloyat rahbariga noinsof quruvchidan shikoyat qilib, 2021-yilning oktabr oyida uy uchun 100 foiz to'lovni amalga oshirgani, biroq shartnoma bo'yicha 2023-yilning oktabrida topshirilishi ke-

rak bo'lgan uy haligacha qurilmaganligini aytdi. Adiz Boboyev bu murojaatni o'z nazoratiga olishini, umuman, noinsof quruvchi va noqonuniy qurilishlar masalasini shaxsan o'rganayotganligini ma'lum qildi. U qabulga kelgan boshqa fuqarolarga murojaat qilib, mazkur yo'nalishdagi muammolarni kompleks hal qilish choralari ko'rilayotganini aytdi. Qabulda asosiy murojaatlar sog'liqni saqlash, elektr energiyasi, gaz va ichimlik suvi ta'minoti hamda yo'l infratuzilmasini yaxshilash, turli ijtimoiy muammolar yuzasidan bo'ldi. Shuningdek, hududlarni rivojlantirish, aholi turmushini yaxshilash bo'yicha taklif va loyihalar bilan kelganlar ham bo'ldi.

Masalan, narpaylik Shahboz G'aybulayev 12 yildan beri chorvachilik bilan shug'ullanadi. Hozirda 15 boshga yaqin qoramoli bor. U viloyat hokimiga sut va go'sht mahsulotlarini qayta ishlash hamda tumanning sug'orilmaydigan yerlarida qoramol uchun ozuqa yetishtirish bo'yicha loyihasini amalga oshirish uchun investitsiya yuzasidan murojaat qildi. Adiz Boboyev fuqaroning taklifi va loyihasini joyiga borgan holda o'rganib, murojaatiga ijobiy yechim topishini bildirdi. Qabulda 652 ta murojaat tinglandi. Yechimi muddat talab qiladigan masalalar bo'yicha mas'ul tashkilot rahbarlariga aniq topshiriqlar berildi.

Imom Moturidiy merosini o'rganish — ma'naviyat va ilm rivojida ulkan qadam

Davlatimiz rahbarining "Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori yurtimizda buyuk mutafakkir va islom ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Imom Moturidiy hazratlarining ilmiy va ma'naviy merosiga bo'lgan yuksak e'tiborning yorqin ifodasi bo'ldi, deyish mumkin.



Bu qaror nafaqat Imom Moturidiyning hayoti va ta'limotini yanada chuqur o'rganishga, balki mam-lakatimizda ilm-ma'rifatni yuksaltirish, islom qadriyatlarini asl holatda targ'ib qilish va sof aqidaviy yo'nalishni keng yoyishda muhim ahamiyat kasb etadi. Imom Abu Mansur Moturidiy (870-944) islom aqidaviy ta'limoti, xususan, sunniylikning moturidiya maktabini shakllantirgan buyuk mutafakkirlardan biri hisoblanadi. U zot ahli sunna val-jamoa ta'limotiga asos solib, inson aqli va vahiy orasidagi muvozanatni saqlash, islomiy aqidani himoya qilish va ilm-ma'rifatni keng yoyish borasida beqiyos xizmat qilganlar. "Ta'vilot al-Qur'on", "Kitob at-tavhid" kabi asarlari islomiy ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ushbu qaror bilan Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligi doirasida keng qamrovli ilmiy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilishi nazarda tutilgan. Bu jarayon nafaqat yurtimizda, balki xalqaro miqyosda ham islom ilmiy merosini targ'ib qilish, Imom Moturidiy ta'limotini keng

tadqiq qilish va yosh avlodga uning aqidaviy maktabini chuqur o'rgatish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda islom ilm-fanini asl manbalar asosida tadqiq qilish va yoshlar ongiga sof, tahqiq etilgan bilimlarni yetkazish katta ahamiyatga ega. Imom Moturidiyning aqidaviy maktabi nafaqat islom olami, balki butun insoniyat ma'naviyati uchun yuksak ilm-ma'rifat manbaidir. Prezidentimizning bu qarori nafaqat tarixiy shaxsga bo'lgan e'tibor, balki diniy-ma'rifiy taraqqiyotga qo'shilayotgan ulkan hissadir. Bugungi globallashtirish davrida diniy ta'limni sof manbalar asosida o'rganish va uni xalqimizga yetkazish katta ahamiyatga ega. Chunki Imom Moturidiy kabi buyuk allomalar ilmiy merosi orqali yoshlarni turli noto'g'ri tushunchalardan himoya qilish, ularni haqiqat yo'lga yo'naltirish mumkin. Ayni damda Prezidentimiz rahnamoligida Imom Moturidiyning ilmiy merosini o'rganish, Samarqanddagi ziyoratgohlarni obod etish, Imom Buxoriy va Imom Moturidiy nomlarini xalqaro miqyosda keng targ'ib etish borasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon nafaqat tarixiy yodgorliklarni tiklash, balki diniy-ma'rifiy sohada ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ilk manbalarga asoslangan xolis islom ta'limotini keng yoyishga xizmat qiladi. Imom Moturidiyning yuksak ilm-fan va ma'rifatga qo'shgan hissasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuning uchun ham, bu qarorni yurtimiz ma'naviy taraqqiyoti va islom ilm-fani rivojiga qo'shilayotgan muhim qadam, deb bilish lozim. **Ahmadxon ALIMOV, viloyat bosh imom-xatibi.**



So'zga sig'mas bo'ldi sharafing, shoning...

Bahor... Boboquyoshning zarrin nurlari Pomir-Oloy tog'larining kumush qorlarini eritmoqda. Cho'qqilardan pastga qarab chopqilab tushayotgan katta-kichik jilg'alar Zarafshon daryosiga qo'shilib, o'zining kuch-qudratini namoyon etishga oshiqqanidan bo'lsa kerak, uning o'rta oqimidagi ko'rkam vodiy bo'ylab hayot ulashmakni boshladi. Biroq ko'klam havosi o'zgaruvchan. Ba'zan birdan sovuq zabtiga olib, qor yog'a boshlaydi. Zum o'tmay yana quyosh chiqib, osmon lojuvard tus oladi.

(Davomi 4-sahifada) >>>

"Jahon chempionini tarbiyalash oson emas"

Shaxmat bo'yicha ikki karra jahon chempioni Afro'za Hamdamova yaqinda Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgandi. Xotin-qizlar bayrami arafasida Afro'za xorijda shaxmat musobaqasida edi. Chempionni viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i taqdirledi. Taqdirlash marosimi viloyat musiqali drama teatrida maktab o'quvchilari uchun tashkil etilgan "Taron" maktabi teatri tanlovining viloyat bosqichi doirasida tashkil etildi.

- Inson o'z maqsadiga faqat mehnat bilan erishadi, - dedi Afro'za. - "Mehnatning tagi rohat", deb bejiz aytishmagan. Men buning isbotini hayotim misolida ko'rdim. - Afro'za aqlli, dono, zukko qiz, - dedi uning sinf rahbari, Samarqand shahar 42-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi Shoira Tagiyeva. - O'zi kamgap, bosiq bo'lsa-da, doim darsga tayyor turadi. Matematika, tarix, ingliz tili fanlarini yaxshi ko'radi. U bizning faxrimiz. - Qizim to'rt yoshidan shaxmatga qiziqdi, - deydi Afro'za. - Dadasi undagi qiziqishni ko'rib, shaxmatni o'rgatdi. Keyinroq shaxmat ustasi Shaxob Hamroqulovga shogirdlikka berdik.



Musobaqalarda g'olib bo'la boshlagach, yanada kuchliroq shaxmat ustalari qizimga murabbiylik qildi. Dadasining o'zi shaxmatga qiziqqani uchun qizim bilan chet elda musobaqalarda birga yuradi. Jahon chempionini tarbiyalash, u bilan xorijda birga yurish oson ish emas. Aksincha, mas'uliyat talab qiladi. **Xurshida ERNAZAROVA.**



20-mart kuni Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'i va "Mo'jiza" amfiteatrida Navro'z sayli tomoshalari o'tkaziladi.

Keyingi yillarda yurtimizda kambag'allikni qisqartirish masalasi kun tartibidan tushgani yo'q. Joriy yili Davlat dasturida ham bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilib, aholining ijtimoiy farovonligini oshirish bo'yicha manzilli vazifalar belgilangan. Xo'sh, ayni vazifalar joylarda qanday amalga oshirilmoqda, xususan, aholini kambag'allikdan chiqarish chora-tadbirlari samara beryaptimi? Qo'shrabot tumani misolida buni o'rganishga harakat qildik.

Siz bergan QARMOQda baliq ushlasa bo'ladimi?



Tumanda 45 ta mahalla bo'lib, ulardagi 29644 oilada 141 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Bugungi kunda 1583 ta oila kambag'allik reestriga kiritilgan. Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 530 ta oilaga viloyat va tuman darajasidagi davlat idoralarning 147 nafar rahbarlari, tadbirkorlar birlashtirilgan. Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlekka ko'maklashish bo'limidan olingan ma'lumotga ko'ra, joriy yilning o'tgan davrida bu oila a'zolarining 280 nafari ish bilan ta'minlanib, 105 nafari tadbirkorlikka jalb qilingan. Yana 129 oilaga "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratilib, o'zini o'zi band qilishga erishilgan.

— "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi ijrosi doirasida tumanimizdan og'ir toifadagi 10 ta mahalla tanlab olinib, ularning infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha manzilli dastur ham ishlab chiqildi, - deydi bo'limning kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bosh mutaxassisi O'tkir Abdusamatov. — Ayni maqsadga budjetdan 3 milliard 422 million so'm mablag' ajratildi. Xususan, Pichot mahallasida aholi tomorasidan samarali foydalanishni tashkil etish uchun 3 kilometr arqini betonlash rejalashtirilgan. Qolgan mahallalar oqar suv manbasidan yiroqda joylashganligi uchun hududida artezian quduqlar ko'lanadi. Shuningdek, 33 ta transformator, 65 kilometr-dan ortiq elektr tarmog'ini ta'mirlash, 23 kilometr ichki yo'llarni asfalt qilish, 5 kilometr piyodalarga yo'lagini tashkil etish ko'zda tutilgan. Barcha yo'nalishlar bo'yicha ishlar boshlangan.

Infratuzilma yaxshilansa, sharoit bo'lsa, albatta, odamlar ko'proq daromad qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Lekin hamma ham bu imkoniyatdan to'g'ri foydalana olyaptimi? Aytaylik, kredit berish orqali kambag'allarni yanada og'ir vaziyatga tushirib qo'yamaymizmi? Tumaning og'ir toifasidagi hududi hisoblangan Pichot mahallasida bo'lib, masalaning ayni jihatlarini o'rgandik.

— O'tgan yili mahallamizning 122 ta oilasi reestrda turgan bo'lsa, bu yil ularning soni 62 tani tashkil qilmoqda, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Akmal Mamatov. — Reestrda chiqqanlarning asosiy qismi kredit olish hisobiga doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi.

Kimdir tadbirkor bo'ldi, boshqalari o'zini o'zi band qildi. To'g'ri, kredit olib, uni qaytara olmayotganlar ham yo'q emas. Lekin o'rganishlar ularning o'zi mehnat qilishni istamasligi, boqimandlik kayfiyatiga berilganini ko'rsatmoqda. Tajribamdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, aniq reja bilan kredit olganlar qiyin vaziyatda qolmaydi.

Mahalla tuman markazidan olisda emas, 3 kilometr masofada joylashgan. Aholining asosiy daromadi chorvachilik va dehqonchilikdan. Hokim yordamchisining aytishicha, o'tgan yillarni ham qo'shib hisoblaganda, mahallaning kredit olmagan fuqarolari deyarli qolmagan. Kimdir dehqonchilik qilish uchun artezian qazdirish uchun, boshqasi issiqxona qurish, yana kimdir qoramol yoki qo'y olish maqsadida 5 millondan 33 million so'mgacha kredit olgan. Shu bilan har bir oila daromad yoki qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lib, asta-sekin yashash sharoitini yaxshilab bormoqda.

— Asosiy daromadim dehqonchilik va chorvachilikdan edi, - deydi Rustam Xolbekov. — Hokim yordamchisining maslahati bilan 33 million so'm kredit olib, limonariyga sarfladim. Natijada bo'sh turgan bir sotix yerdan yiliga 15-20 million so'm qo'shimcha daromad paydo bo'ldi. Bu yil yana 33 million so'm kredit olib, yangi, kattaroq issiqxona qurishga sarfladim. Limonchilikni yanada kengaytirishni rejalashtiryapman.

Shu mahalladagi Iroda Omonova esa bor-yo'g'i 5 million so'm kredit olib, turli pishiriqlar tayyorlashni yo'lga qo'ygan. Yaqingacha ishsiz va daromadsiz bo'lgan oddiy uy bekasi shu mablag' bilan tadbirkorga aylandi. Hozir u o'z mahallasi va qo'shni mahallalardagi do'konlarga pishiriqlar yetkazib berib, yaxshigina daromad qiladi. U ham faoliyatini kengaytirish va qo'shimcha ish o'rnlari ochishni maqsad qilgani va yana kredit olish niyatida ekanini ma'lum qildi.

— Fuqaroga kredit berishdan oldin uning kredit tarixi o'rganiladi, olinadigan mablag'ni maqsadli yo'naltirish bo'yicha loyiha ishlab chiqiladi, - deydi mahalladagi bank xodimi Mirsharof Toirov. — Biz o'z navbatida bu loyihalarning to'g'ri ishlashini nazorat qilib, fuqarolarga nazariy va amaliy ko'mak beramiz. Ular mahsulot ishlab chiqarsa, xaridor topishda ham yordam beramiz. Aytmoqchiman-ki, kredit barchaga ajratilavermaydi va uni olganlar foydali qilihi va kambag'allikdan chiqishi ta'minlanadi. Agar teskarisi bo'lsa, ya'ni kredit olgan oila uni to'lay olmasa, bu mahallaning reytingida va albatta, bizning ish samaradorligi ko'rsatkichimizga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'g'ri, keyingi vaqtda aholining bank kreditlariga ehtiyoji ko'paydi. Bu vosita kambag'allikni qisqartirishda ham keng qo'llanilmoqda. Lekin odamning o'zida harakat bo'lmasa, kredit vaziyatni yanada yomonlashtirishi turgan gap. Teskarisi bo'lsa, bu yaxshi hayot uchun imkoniyat. Shu ma'noda kambag'allikdan chiqish masalasi ham ko'proq fuqaroning o'ziga bog'liq bo'lmoqda. Nazarimda imkoniyatlar yetarli, odamlardan esa faqat intilish va harakat kerak.

Asaf BAROTOV,
"Zarafshon" muxbiri.

Ilm-fan davlatlarni bog'lovchi rishta

O'zbekiston hamda Fransiya davlatlari o'rtasida 1992-yilda diplomatik munosabatlari o'rnatilgan. Bu aloqalar keyingi yillarda mulqoq yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimizning Fransiya uchun tashrifi davomida o'tgan muzokaralar va Emmanuel Makronning 2023-yilda Samarqandga kelishi mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni tubdan o'zgartirdi.

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti ham Fransiya bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Hamkorlikning asosiy bosqichlari boshlangan 2019-yilda universitetimiz bilan Parij akademiyasi o'rtasida ilmiy va madaniy yo'nalishda hamkorlik memorandumi imzolandi. Ushbu memorandum ikki tomonlama ilmiy tadqiqotlar, madaniy almashinuv va mutaxassislar tayyorlash sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qildi.

2021-yilda Fransiyaning Ruan Normandiya universiteti bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha kelishuv imzolandi. Bu kelishuv ikki davlat o'rtasidagi ta'lim va madaniyat sohasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishga qaratilgandi. 2023-yil 3-noyabr kuni oliygohimizda Fransiyaning favqulodda va muxtor elchisi Aurelia Bushezi xonim kelib, turizm sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, sohani chuqur o'rganishi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

2024-yil 17-19-sentabr kunlari Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan xalqaro turizm va sayohat ko'rgazmasining O'zbekiston pavilonida mahalliy va xorijiy ishtirokchilar uchun mamlakatimizning turizm salohiyati targ'ib qilindi. 18-sentabr kuni Parij shahrida joylashgan O'zbekiston Respublikasi elchixonasida ikki mamlakat diplomatik korpusi, YUNESKO bosh shtab-kvartirasi, xalqaro turizm kompaniya va agentliklari vakillari uchun tashkil etilgan tadbirida YuNeSKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ilk bor oxirgi 40 yil davomida Fransiya yadani tashqarida, Samarqand shahrida o'tkazilishi bejizga tanlanmaganligi, O'zbekiston YUNESKO bilan oxirgi yillarda olib borgan hamkorlik asosida erishilgan natijalari, davlatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarga bog'ishlangan taqdimot o'tkazildi.

2024-yil 18-noyabr kuni Samarqanddagi fran-



suz Alyansi direktori va Fransiyaning Toshkentdagi elchixonasida faoliyat yurituvchi Sampus Franse loyihasi mas'ul vakili Alise Mot xonim "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida mehmon bo'ldi.

Uchrashuvda Parijdagi Sharq tillari va madaniyati milliy institutida "O'zbekshunoslik" kafedrasi faoliyatini yo'lga qo'yish va hamkorlik o'rnatishda Fransiya elchixonasining amaliy ko'magi muhimligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 12-mart kuni Fransiya davlat tashrifi doirasida BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti bosh direktori Odri Azuleni qabul qildi.

BMT tizimidagi ushbu nufuzli tuzilma bilan samarali hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari, shuningdek, joriy yilning kuzida Samarqand shahrida tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishning amaliy jihatlarini muhokama qilindi. O'zaro mulqot davomida Prezidentimiz Samarqanddagi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida YUNESKO kafedrasining tashkil etilganligi xususida gapirdi. Darhaqiqat, 2024-yil mart oyida universitetda YUNESKO kafedrasini tashkil qilinib, qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Endilikda kafedra professor-o'qituvchilari qator xalqaro loyihalarda ham faol ishtirok etmoqda.

Prezidentimizning Fransiya tashrifi doirasida Parij shahrida ikki davlat oliy ta'lim muassasalari rahbar va vakillari o'rtasida ilm-fan borasida hamkorlik uchrashuvlari bo'lib o'tdi. "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tadbir doirasida Parij shahridagi YSchools universiteti bilan Erasmus+ dasturi bo'yicha hamkorlikda mobillik loyihalari amalga oshirish, Sorbonne Paris Norde universiteti bilan ma'ruzalarga fransuz mutaxassislarini jalb qilish bo'yicha muzokaralar olib bordi.

Dilmurod NASIMOV,
"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining birinchi prorektori, professor.

Qurilish jarayonida havo ifloslanishi uchun javobgarlik joriy etildi

Bu O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-martdagi Qonunida belgilangan.

Qonunga ko'ra, o'lchami besh yuz kvadrat metr va undan ortiq bo'lgan qurilish maydonida, unga tutash bo'lgan hududda hamda undan chiqish yo'larida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablarni buzish yoxud ushbu hududlarda ifloslantiruvchi moddalarning yo'l qo'yiladigan doiradagi normalatdoran ortiq darajada atmosfera havosiga chiqarilishiga yo'l qo'yish mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari (3 million 750 ming so'm) miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilsa, mansabdor shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari (18 million 750 ming so'm) miqdorida jarimaga tortiladi. Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 3 oy o'tgach kuchga kiradi.

Ibroximxon MUZAFFAROV,
Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi direktori.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish hamda "yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish kabi vazifalar belgilangan.

Keyingi yillarda viloyatimizda "yashil energiya"dan foydalanish, aholi xonadonlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda ishlab chiqarish korxonalariga quyosh panellari o'rnatish, mini GESlarni ishga tushirish borasida keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Biroq 2023-2024-yillarda viloyatda qo'shimcha elektr energiyasini ishlab chiqarish va tejash bo'yicha rejalar bajarilmay qoldi. 122,2 mVt o'rni 87,2 mVt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini ishlab chiqarilgan. 18 ta o'rni 1 ta gidroelektr stansiyasi qurilib, foydalanishga topshirildi.

- Viloyatda "yashil energiya"dan foydalanish ko'lamin kengaytirish, mavjud energiya resurslarini tejash, ayniqsa, quyosh panellari o'rnatish borasida muayyan ishlar



"YASHIL" energiya ulushi oshadi

amalga oshirilmoqda, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali boshlig'i Eldor Mamasoliyev. - Jumladan, 2023-2024-yillarda 1014 ta ijtimoiy uy qurilish qad rostimda. Hozirgacha foydalanishga topshirilgan 36 ta uyning har biriga 12,5 kVtlik jami 450 kVt quvvatli quyosh kollektor o'rnatildi. Jumladan, "Agromir buildings" MChJ tomonidan 3 yilda 500 xonadonli 20 ta turarjoy binosi qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, hozirgacha 12 ta uy foydalanishga topshirilgan.

- Aholi kirib yashayotgan uylarning har biriga 25 tadan quyosh paneli o'rnatilgan, - deydi korxonada texnik nazoratchisi Dilmurod To'liyev. - Uylarimiz 5 qavatli bo'lgani uchun ularda lift ko'zda tutilmagan. Biroq qurilmalar faqat uyda yashovchilarning ehtiyojiga yetarli qilib joylashtirilgan. Ishlab chiqarilgan elektr energiya hozircha tashqi va ichki yoritish tizimlari, yerto'la va hovlida o'rnatilgan tunji yoritish chiroqlari uchun xizmat qilmoqda.

"Agromir buildings" MChJ qator yillardan buyon Samarqand shahridagi Qorasuv massivida ham yuzlab ko'p qavatli uy-joylar qurib kelmoqda. O'tgan yili foydalanishga topshirilgan 12 ta uy-joylarga lift, suv nasosi hamda ichki va tashqi yoritish tizimlarini ishlatish quvvatiga ega bo'lgan qayta tiklanuvchi qurilmalar o'rnatilgan. Joriy yilda foydalanishga topshirilib ko'zda tutilgan

Umar Mirzayev. - Samarqand shahrida 11 ta, Bulung'ur tumanida esa 18 ta ko'p qavatli uyga quyosh panellari o'rnatilgan bo'lsa, Jomboyda 5 ta, Narpay va Nurobodda 4 tadan hamda Oqdaryo tumanida 3 ta uy-joy qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari bilan ta'minlangan.

Bulung'ur tumani Olmazor mahallasi hududida bunyod etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivida 56 ta ko'p qavatli uy qurilish qad rostimda. Hozirgacha foydalanishga topshirilgan 36 ta uyning har biriga 12,5 kVtlik jami 450 kVt quvvatli quyosh kollektor o'rnatildi. Jumladan, "Agromir buildings" MChJ tomonidan 3 yilda 500 xonadonli 20 ta turarjoy binosi qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, hozirgacha 12 ta uy foydalanishga topshirilgan.

- Aholi kirib yashayotgan uylarning har biriga 25 tadan quyosh paneli o'rnatilgan, - deydi korxonada texnik nazoratchisi Dilmurod To'liyev. - Uylarimiz 5 qavatli bo'lgani uchun ularda lift ko'zda tutilmagan. Biroq qurilmalar faqat uyda yashovchilarning ehtiyojiga yetarli qilib joylashtirilgan. Ishlab chiqarilgan elektr energiya hozircha tashqi va ichki yoritish tizimlari, yerto'la va hovlida o'rnatilgan tunji yoritish chiroqlari uchun xizmat qilmoqda.

"Agromir buildings" MChJ qator yillardan buyon Samarqand shahridagi Qorasuv massivida ham yuzlab ko'p qavatli uy-joylar qurib kelmoqda. O'tgan yili foydalanishga topshirilgan 12 ta uy-joylarga lift, suv nasosi hamda ichki va tashqi yoritish tizimlarini ishlatish quvvatiga ega bo'lgan qayta tiklanuvchi qurilmalar o'rnatilgan. Joriy yilda foydalanishga topshirilib ko'zda tutilgan



35 ta ko'p qavatli uyning barchasiga 752 kVt quvvatga ega 39 ta panel o'rnatiladi.

Bulung'ur tumanida so'nggi 5 yilda 22,8 million dollarlik loyihalar asosida 60 dan ziyod sanoat korxonasi ish boshladi. Natijada elektr iste'moli 1,4 barobarga oshib, 150,8 million kVtni tashkil etdi. Bu yil esa yana 18 ta sanoat loyihasi ishga tushadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, loyihalar uchun 19,7 million kVt elektr talab etiladi.

- Buni qoplash uchun 26 ta davlat obyekti va 135 ta aholi xonadoniga qayta tiklanuvchi manbalar o'rnatilib 2 million kVt elektr iqtisod qilinishi ko'zda tutilgan, - deydi tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi bosh mutaxassisi Odiljon Yoqubov. - Energiya samaradorligini oshirish va yo'qotishlarni kamaytirish hisobiga 5-6 million kVt iqtisod qilindi. Elektr taqchilligining oldini olish maqsadida joriy yilda aholi xonadonlariga 2000 kVt, ijtimoiy soha va davlat obyektlariga 350 kVt, tadbirkorlar tomonidan 1610 kVt quvvatli quyosh panellari o'rnatish rejalashtirilgan.

Hozirgi kungacha tumanda 60 ta davlat idorasi va ijtimoiy soha obyektida 430 kVt quvvatli, 434 ta aholi xonadonida 1485,8 kVt quvvatli hamda 44 ta tadbirkorlik subyektida 2942,3 kVt, 13 ta ko'p qavatli uyning tum qismida 64,3 kVt quvvatli quyosh panellar o'rnatildi.

G'oziboy Eshmurodov tumandagi Kataqshloq mahallasida istiqomat qiladi. O'z

xonadoniga 5 kVt quvvatli 10 dona quyosh paneli o'rnatganiga ikki yilcha bo'lib qoldi. Ushbu qurilmalari yordamida 21600 kVt elektr energiya ishlab chiqarib, davlatga 5400 kVt elektr energiya sotdi.

- Uyimizda konditsioner, muzlatkich, o'ndan ziyod chiroqlar hamda suv nasosi ishlab turibdi, - deydi Sayyora Eshmurodova. - Kecha-kunduz beminnat xizmat qilyap-ti. Elektr uchun umimam to'lov qilmaymiz. Bizni ko'rib, qo'shnilarimiz uylariga quyosh paneli o'rnatishga qaror qilishgan.

Eslatib o'tamiz, 2023-yil 1-apreldan umumiy quvvatli 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ulari foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran 3 yil muddatga, o'rnatilayotgan quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lgan quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi bilan o'rnatilgan bo'lsa, 10 yil muddatga ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk solig'ini, qurilmalar bilan band bo'lgan uchashtalar bo'yicha yer solig'ini, yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasini uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi.

Dilmurod TO'XTAYEV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat),
"Zarafshon" muxbirlari.

"SAMARQAND IPAK YO'LI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

azaliy qadriyatlarimiz va
an'analarimiz timsoli –

Navro'zi olam

bilan barcha yurtdoshlarimizni
tabriklaydi.



Xizmatlar
Iltisiziyalangan.



O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING SAMARQAND VILOYATI KENGASHI

aziz yurtdoshlarimiz va kasaba uyushmalari
a'zolarini sharqona yangi yil –

Navro'z bayrami

bilan
tabriklaydi.

To'g'ri so'z va qadriyatlarga sodiq inson edi

Shunday kishilar borki, ular insonning eng yuksak fazilati – fidokorona mehnatni chinakam hayot mazmuniga aylantirish orqali hurmat qozonib, obro'-e'tibor topadi. Hayot zahmatlarida toblangan, necha-necha sinovlarni yengib o'tgan bu insonlar chindan-da hurmat va e'tiborga loyiq bo'ladi.

Tashkilotchi rahbar, bilimdon pedagog Ato Vafoyev ham ana shunday insonlardan edi. Hayot bo'lganida bugun o'z kishi 100 yoshni qarshilagan bo'lardi.

Ato Vafoyev Samarqand shahrida tug'ilgani. Onasi Xosiyat momo novvoychilik bilan shug'ullangani uchun farzandlarini ham yoshligidan mehnatga o'rgatgan. Jumladan, Atoning ham suyasi mehnatda qotgan bo'lsa-da, ilm olishga ishtiyoqi kuchli edi. Shuning uchun qisqa muddatli kursda savod chiqargach, o'zi ham shu yerda o'qituvchilik qila boshladi. Mahalladoshlarining yozish va o'qishni o'rganishlariga yordam berdi. 1943 yilda 18 yoshli o'qituvchi 3-maktabni bitirgach, urushga jalb qilindi.



1944-yilda barcha o'qituvchi va talabalar maktabda ishlash va o'qishni davom ettirish uchun frontdan qaytarilgach, A.Vafoyev ham ona Vatanga qaytib keldi. Pedagogika bo'yicha oliy ma'lumot olish uchun Samarqand davlat universitetiga o'qishga kirdi.

Universitetni bitirib, o'qituvchilikni davom ettirish barobarida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullandi. Toshkent shahrida aspiranturada o'qib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va ilmiy, pedagogik faoliyatini davom ettirdi.

Ato Vafoyevning insoniy fazilatlarini va tashkiliy qobiliyatini inobatga olinib, mas'ul lavozimlarga tavsiya etildi. Uzoq yillar partiyaning viloyat qo'mitasida bo'lim mudiri vazifasida ishladi. Lekin bir dafn marosimida milliy kiyim – chopon va do'ppi kiyib, bel bog'lagani uchun ishlab turgan lavozimidan ozod qilindi. Lekin u o'z g'oyalari-dan chekinmadi va hayot esa uning haqligini ko'rsatdi.

A.Vafoyev bir muddat Sa-

marqand kooperativ instituti (hozirgi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti) sirtqi bo'limi mudiri vazifasida ishladi, so'ngra uning tashabbusi bilan ushbu bo'lim fakultetga aylantirildi va bu birinchi dekan sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Keyinchalik olim Samarqand davlat universiteti rektoratida ishladi, ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirdi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgan yillarida Ato Vafoyev nafaqada bo'lsa-da, sobiq Bog'ishamol tumani faxriylar kengashi raisi lavozimiga tayinlandi. Jamoat ishlarida faol ishtirok etib, el ichida obro'-e'tibor qozondi.

Tajribali rahbar, bilimdon pedagog Ato Vafoyev 2003-yilda vafot etgan edi. U rafiqasi bilan besh nafar farzandni tarbiyalab, el koriga yaraydigan insonlar etib voyaga yetkazdi. Bugun uning avlodlari 100 nafarga yetgan va ular bobosi amalga oshirgan ishlar bilan doim faxrlanib yurishadi.

Toshqul AZIMOV.

Xotira uyg'onsa go'zal



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Ashurova Zuxraga (2000-yil 11-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Mallayeva Barno Axmadovna (2023-yil 29-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Zayniddinov Baxodir Amriddinovichga (2024-yil 15-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Raupova Xursheda Muminovna (2024-yil 10-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Abdurashidov Xaliliga (2014-yil 16-dekabrda vafot etgan) te-

gishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Valiyeva Ismigul Ametovna (2024-yil 11-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahar hokimining uy-joylarni hisobga olish, taqsimlash va almashirish boshqarmasidan 1993-yil 24-avgustda Samarqand shahri Sartepa maskani, 83-uy, 20-xonadonni Sokolenko Vladislav Anatolevichga tegishli ekanligini tasdiqlovchi 10936-raqamli davlat dalolatnomasining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Abdukodirov Dilshod Abduganiyevich va Abduxaliqov Rufatjon Anvarjon o'g'lilar o'rtasida Samarqand shahri "Sayqal" MFY, Rudakiy ko'chasi 179-"A" uy, 2-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasidan 2024-yil 13-martda tasdiqlanib, Ksh 131259 SA blankada tuzilgan, 202402255000295 raqam bilan reestr-ga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT

"IMPULS-INNOVATSIYA NAVOIY" NTM Zarmitan filiali o'quv markazidan 2024-yil aprel oyida Xolboyev Ma'mur Sirliboy o'g'liga berilgan guvohnoma Qo'shrabot tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu guvohnomani top-ganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99893-870-55-88.

Kechikkan tavba

Turmush chorrahalarida



Isroil bobo Xolmurodning to'y maslahatiga biroz kechikib bordi.

- Assalomu alaykum, tog'ajon, ham-madan oldin kelib, mundaq gurunglashib o'tirmaysizmi? - o'pka-gina qilgandek bo'ldi Xolmurod. - Qani, to'rga marhamat.

Boboning hurmatiga davradagilar o'rnidan turib, yo'l berdi.

- Uzi, jiyani, traktor kelib qoldi, to-morqani haydataman deb kechikib qoldim, bilasan, tog'anglar ishdan. - Isroil bobo to'rga o'tdi. - Sizlarni ham bezovta qildim, aybga buyurmaysizlar-da, qani, o'tiringlar.

- E, boboy, endi sizga tomorqa nimaga kerak, buyog'ingizdan uyog'ingiz yaqin qolgan bo'lsa, - aroq suzayot-gan Maxsi pioniyona o'zicha hazillashgan

bo'lib, qovun tushirib qo'ydi.

- Nima? - Isroil boboning jahli chiqib, pioniyona tikildi. - Qancha umrim qol-ganini sen qayerdan bilasan?

Yonida o'tirgan Hamdam bobo "Siz og'irroq bo'ling birodar, axmoq har narsa deb vaysayveradi-da", deya Isroil boboning tizzasiga urib qo'ydi. Davra sovigan edi. Pioniyona biron nafrat, biron istehzo bilan qaradi. Ichkilik aqlidan ozdiradi, deganlari shu-da! Otasi tengi qariyaga bu luqma noo'rin va haqorato-muz edi. Maxsi ichaverib, nima deganini o'zi ham bilmaydigan majruhga aylangandi.

- Sen birovga o'lim tilaguncha, o'zing-ga umr tila, hayvon, - Isroil bobo omin qilib, etagini qoqib turdi. - Yaxshi o'tiring-lar, - uning izzati qattiq koyingan edi.

Qo'lida gulday hunari bo'lib, montyor bo'lib ishlovchi Maxsi pioniyona ichkilikka berilib, insoniy qiyofasini yo'qotgan, oila-si, bolalari tashlab ketib, daydi kimsaga aylangandi.

Xolmurod to'y kuni kerak bo'lib qolar deb, maslahatga chaqirganiga pushay-mon bo'ldi. Kelganlar vaqtlari ziqligini, to'y yaxshi o'tishini tilab, birin-ketin tarqab ketishdi.

... "O'ttizga kirmay o'tin bo'ldi" degan-laridek, ichkilik oxiri Maxsi pioniyona boshiga yetdi. Insult olib, oyoq-qo'li shol bo'lib qoldi. Oilasidan mahrum bo'lgani, Isroil boboga o'xshagan qancha odam-larga ozor berganini o'ylab, pushaymon bo'ldi: "Ey, Xudo, gunohkor bandangni o'zing kechir, tavba qildim!".

Tog'aymurod SHOMURODOV.

SO'ZGA SIG'MAS BO'LDI SHARAFING, SHONING...

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ammo, insof bilan aytdigan bo'lsak, Samarqandda bahoriy evrilishlar allaqachon boshlangan. Viloyatda kechayotgan bugungi hayotbaxsh o'zgarishlar, hamma sohalaridagi yangilanish va bunyodkorliklar, odamlar tafakkuridagi yuksalishlar shuning dalili emasmi?!

Samarqand deganda, avvalo, ko'z oldimizda tarixning turli davrlaridan so'ylaguvchi ko'hna obidalar, sir-sinoatlarga to'liq qadamjolar jonlanadi. Agar bu haqida yozaman desangiz, ko'lami bir maqolaga sig'mas, balki ming doston bo'lajak. Darhaqiqat, bu o'lkada azaldan hayot qaynagan. Balki boshlanishi 3-3,5 ming yilga borib tutashar. O'sha davrlardayoq qadim ajdodlarimiz bu manzillarni makon tutgan.

Balki bunga uning jug'rofiy qulayliklari sabab bo'lgandir. Relefi, asosan, kenglik bo'yab chozilgan va shimoldan Turkiston tog' tizmalarining tarmoqlari — Nurota, Oqtog', janubdan Zarafshon tog' tizmalari bilan o'ralgan bu hudud fusunyor tabiati, unumdor tuprog'i, xush havosi tufayli insonlar uchun yashashga juda qulay hisoblangan.



Hudud foydali qazilmalarga nihoyatda boy. Oltin, kumush, volfram rudasi (Ingichka), flyuorit, kvars, ohaktosh, granit, mergel, gips, bentonit gili, abraziv materiallar, mineral bo'yoqlar, marmar (Omonqo'ton, G'ozg'on, Jom), korund konlari (Nurotaning janubi-sharqida), mineral buloqlar necha ming yillardan buyon xalqimizning hayoti farovonligini ta'minlashga hissa qo'shib kelmoqda.

Nabotot va hayvonot olamining turfa naviyu har xil turi uchraydi bu go'zal oshyonda. Bahor kelishi bilan tog' yon bag'irlariga yaqin tekisliklarda qizg'al-doqlar barq uradi, shuvog'u qo'ng'irboshlar chayqalib, chor-atrofi ajib iforga burkaydi. Daryo sohillarini qoplagan jiyda, turang'il, maymunjon, yulg'un to'qay-zorlari, dastlarga husn bergan turfa o'simliklar, gullar, chechaklar tulki, chiyabo'ri, jayron, tustovuq, tuvaloq, kaklik kabi turli-tuman jonzotlarga bag'ridan joy berib, ularga rizq ulashadi.

«AJAB ORASTA SHAHREDUR...»

Shubhasiz, vohaning ko'ru jamoli va dunyoni tutgan ovozasi Samarqand shahrining shon-shuhrati bilan bog'liq. O'tmishda bu kent qanchalik shuhrat qozongan bo'lsa, bugungi davrning undan ziyoda bo'lsa bor,

ammo kam emas.

Bilasiz, dunyoda «Boqiy shahar» degan ulug' nomga sazovor bo'lgan kentlar unchalik ko'p emas. Ko'hna va hamisha navqiron Samarqand qadim tarixi, insoniyat tamaddunida tutgan beqiyos o'rni bois mana shu yuksak maqom bilan sharaflangan. Quvonarlisi, shu martabani bugun ham mahkam tutib turibdi.

Go'zal tabiati, mo'tadil iqlimi, qulay jug'rofiy joylashuvi, mehnatkash va mehdariyo xalqi bilan ne-ne saltanatlarga poytaxt bo'lmadi bu go'zal kent. Shu bois ham dovrug'i yetti iqlimga ketgan bu shahar haqida turli afsonalar yaratilgan. Necha avlodlar shu asotirlarni eshitib ulg'aydi. Siz bilan biz ham ularning anchasini eshitganmiz, albatta.

Hatto antik davr tarixchilari asarlarida ham ushbu shahar haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Masalan, uning dastlabki nomlaridan biri sifatida «Marokanda» atamasini keltirilgan. Bu «Samarqand» istilohining yunoncha talqini ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Zotan, shahar hududida olib borilgan arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lganidek, yuqori paleolit davrida ham bu yerda odamlar yashagan.

Asrlar davomida ushbu oshyonda qanchadan-qancha obidalar, qo'rg'onlar, ibodatxonalar barpo bo'lmadi, deysiz? Afsuski, ularning ko'pi dushmanlar tomonidan vayron etilib, tuproqqa qorishtirildi. Faqat ayrimlarigina ulug' ajdodlarimizning yuksak aql-zakovati, betimsol bunyodkorlik salohiyati mahsuli sifatida bugungi kungacha savlat to'kib turibdi. Shuning uchun Samarqandning har qism tuprog'iga ulug' ajdodlarimizning xoki, har qarich yerida muborak izlari, samoviy obidalar g'ishtlarida, niliy gumbazlarida ko'z nuri, qalb qo'ri mujassam, desak, mubolag'a emas.

Sohibqiron Amir Temur Samarqandni o'zi barpo etgan markazlashgan davlatning poytaxti sifatida tanlaganida shu jihatlarni hisobga olgani aniq. Zotan, qadimdan madaniyat va ma'rifat markazi bo'lib kelgan bu kent saltanatning qudratiga, obro'-e'tiboriga g'oyat mos edi. Temur va temuriylar bu go'zal shahri azimni yanada jozibali ma'voga aylantirdi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqand ta'lim, ilm-fan, xususan, falakiyot kuchli taraqqiy etgan shahar o'laroq olamga nom chiqardi.

O'z davrida Alisher Navoiydek buyuk so'z san'atkori, atoqli davlat arbobining Samarqandda ta'lim olgani uning naqadar yuksak mavqe kasb etganidan dalolat beradi.

Bir necha ming yillar osha Samarqandning ta'rifu tavsifi dillardan-dillarga, tillardan-tillarga o'tib, olamro shon-shuhrat qozondi. Natijada unga «Yer yuzining sayqali», «Nur taralib turuvchi nuqta», «Dunyo tamaddunining gavhari», «Boqiy shahar», deya ulug' ta'riflar berildi. Ne-ne shoirlar uning ko'ru jamoliga atab she'ru g'azallar, dostonlar bitmadi, deysiz. Butun insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan olimlar u haqda ilmiy asarlar yaratdi.

Shu tariqa shaharda qurilgan obidalar, orasta bog'lar go'zalligi, ko'ru tarovati dovrug'i butun olamga keng yoyildi. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da «Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur. Samarqand shahri ajab orasta shahredur...» deya yozganida zarracha mubolag'a qilmagani shubhasiz.

Bugungi kunda ham bu dilbar ma'vo xususida ash'orlar va ilmiy asarlar yaratilmoqda. Gapning ochig'i, mazkur betakror kent bunga har jihatdan munosibdir.

TARIX VA KELAJAK TUTASHGAN MANZIL

Buyuk o'tmishdan kuch va ruh olgan Samarqand tarix va kelajak tutashgan manzil sifatida bugun yangi O'zbekistonning gavhari sifatida o'zini namoyon etmoqda. Shahar ham suratani, ham siyratani butunlay yangilanyapti. Bunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning hissasi beqiyos. Buni barchamiz ko'rib-bilib turibmiz.

Oxirgi yetti-sakkiz yilda Samarqand o'z taraqqiyotining mutlaqo yangi davriga qadam qo'ydi. Timsollar tilida aytdigan bo'lsak, u qayta tug'ildi va dunyoga takror yuz ochdi, ya'nikim uzukka dur joylangan kabi bo'ldi.

Viloyatda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar va ulkan bunyodkorliklar nafaqat hudud ravnaqini ta'minlash, balki ushbu afsonaviy ma'voning dunyo sahnasidagi tarixiy o'rni va shuhratini qayta tiklash, aholi farovonligiga erishish, yurtdoshlarimiz va sayyohlar uchun barcha zamonaviy infratuzilmani yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Viloyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi yuksalish odamlar turmush tarzida, osoyishtalik, to'kinlikda namoyon bo'lmoqda. Bugun viloyatning Kattaqo'rg'on, Urgut, Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Narpay, xullas, qaysi hududiga bormang, sanoat keng quloq yozayotganiga guvoh bo'lasiz. Hatto viloyat markazidan eng olis qishloqlarda ham yangi korxonalar ochilyapti. Xususan, o'tgan yili viloyatga 928,5 million dollar miqdorida xorijiy investitsiya mablag'lari jalb etilib, 147 ta loyiha ishga tushirildi. Bundan tashqari, 166 ta qo'shma korxonalar ochildi va ularning soni 926 taga yetdi. Endi bu zavod va fabrikalarda minglab samarqandliklar mehnat qilayotganini hisobga oladigan bo'lsak, qanchadan-qancha oilalarga quvonch kirib keldi, insonlarning orzu-maqsadlari ro'yogba chiqqanini, ertangi kunga ishonchi mustahkamlanganini tasavvur etishimiz qiyin emas.

Viloyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bugun dunyoni zabt etayotir. Aynan shu yerda tayyorlangan kiyim-kechaklar, mebel va texnikalar, hatto rivojlangan mamlakatlar aholisining xonadonlari to'ridan joy olmoqda.



O'tgan yili viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2,8 milliard dollarni tashkil qilgani ham aslida shundan darak beradi. Bu ko'rsatkich eksport hajmi 2023-yildagiga nisbatan 127 foizga oshganini ifodalaydi.

Davlatimiz rahbari yaratib bergan imkoniyat va imtiyozlar tufayli viloyat aholisi kichik biznes va tadbirkorlik borasida ham salmoqli yutuq va natijalarga erishmoqda. Ayni paytda viloyatda xususiy sektorning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 73 foizdan oshgani va mehnat bilan band aholining 87 foizdan ziyodi shu tizimda mehnat qilayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Yana bir e'tiborli jihat: 2024-yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 6,9 foiz o'sgan. Bu esa hududning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti barqaror tus olganidan darak beradi.

KO'NGILLARGA KO'CHAYOTGAN OBODLIK

Samarqand viloyati keyingi yillarda tom ma'noda ulkan bunyodkorlik maydoniga aylandi. Bir vaqtlar yozda kavush botar chang, qishda bir qarich loy jin ko'chalar bugun nihoyatda orasta, tekis asfaltlangan, keng va ravon yo'larga evrilgan. Panna-pastqam uylar o'rinda zamonaviy osmono'par binolar qad rostlamoqda.



Samarqand shahrining bir qancha ko'chalari kesishgan nuqtalarda yer osti yo'llari barpo etildi. Aholini shinam va arzon uy-joy bilan ta'minlash alohida dastur asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, «Qorasuv» massividagi 100 ming kishi yashashiga mo'ljallangan ko'p qavatli uylar, «Yangi O'zbekiston» massividagi 1294 kvartirali 36 ta ko'p qavatli imorat allaqachon o'z egalari topshirildi. Vohada ko'p qavatli uylar qurish izchil davom etmoqda.

Bu bunyodkorliklar qatoriga «Obod qishloq» dasturi doirasida olib borilayotgan ishlarni — qishloq va mahallalar yo'llari tekislanib, asfalt qilinayotgani, xonadonlarga ichimlik suvi tarmoqlari tortilayotgani, tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha muammolar hal qilinayotganini ham qo'shsak, bu ezgu ishlarning ko'lami va ahamiyatining zalvori yanada oshadi.

Bugun samarqandliklar bilan suhbatlashsangiz, ularning kayfiyat ko'tarilganini, ruhi balandligini darrov sezasiz. Turmush tarzidagi, yon-atrofidagi o'zgarishlar ularning ongu tafakkuriga, hayotiy qarashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini bot-bot tilga olishadi. Aholi bandlegini ta'minlash, kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etish, jonajon Vatanimizning rivojiga hissa qo'shman, degan har bir yurtdoshimizga ko'maklashish — qisqacha aytganda, el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashash mutasaddi rahbarlardan tortib oddiy odamlargacha hayot tamoyiliga aylaniy borayotgani quvonarli, albatta.

Shu ma'noda, kelgusi marralar yanada baland olingan. Jumladan, joriy yilda viloyatda 320 mingta yangi ish o'rni yaratish bo'yicha tasdiqlangan rejaning ijrosini ta'minlash, har bir mahalla drayveridan kelib chiqib shakllantirilgan 45 mingdan ziyod loyihalarni ishga tushirish, «turizm mahallalari» va «turizm qishloqlari»ni ko'paytirish, eksportni 850 million dollargacha oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O'tkir RAHMAT.

(Davomi kelgusi sonda)



Ba'zida ko'cha-ko'yda, to'y-ma'rakada yoki yig'ilishlarda kasaba uyushmalari to'g'risida suhbat ochilib qolsa, «Kasaba uyushmalari sanatoriy va oromgohlarga yo'llanma beradigan tashkilotmi?» deb so'rashadi. Aslida kasaba uyushmalari faoliyatida bu kabi ishlar ko'lami keng bo'lib, dam olish uchun yo'llanma ajratish ushbu ishlarning bir yo'nalishi, xolos.

Ishlayapsizmi, demak,

ikki yilda bir marta imtiyozli dam olishga haqqingiz bor!



ishlovchi pensionerlar hamda kasaba uyushma a'zolarining ota-onalariga imtiyozli yo'llanmalar berildi. Qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilayotgan 18 nafar xotin-qiz ham sanatoriylarga bepul yo'llanma asosida salomatligini tikladi.

Bugungi kunda Federatsiya qoshida 30 dan ortiq sanatoriy va dam olish maskanlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Barcha sanatoriylar qaytadan rekonstruksiya qilinib, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlanmoqda.

Imtiyozli dam olishni istagan ishchi-xodimlar uchun o'zlari ishlayotgan korxonada tashkilotlardagi boshlang'ich kasaba uyush-

masiga ariza bilan murojaat qilsa bo'ldi.

Ishchi va xodimlar kasaba uyushma yoki ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'lari hisobidan yo'llanma olishidan qat'i nazar, unga ikki yilda bir marotaba sanatoriyga yo'llanma beriladi. Shuningdek, bu yo'llanmalar xodimning yaqin qarindoshlari, ya'ni, ota-onasi, turmush o'rtog'i va farzandlariga ham beriladi.

Yo'llanmalar uch xil tartibda beriladi. Birinchisi, mehnat va urush faxriylari, baynalmilalchi jangchilar, chernobilchi, olis va chekka hududlarda yashovchi farzandtalab yosh oila vakillari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ishlovchi vakillari bepul yo'llanma olishi mumkin. Ikkinchi tartibda, ishchi-xodimlar va ularning oila a'zolari yo'llanma qiymatining 45 foizini to'laydi. Uchinchisi, to'liq qiymatda to'lov qilish uchun viloyat kasaba uyushma kengashi qoshida tashkil etilgan «Shuhrat oromi» MChJga murojaat qilish lozim. Ushbu korxonada tomonidan hozirgi kunda vaqtincha ishlayotgan fuqarolar va chet davlatlar-

O'zbekiston kasaba uyushmalariga 120 yil



da dam olishni xohlovchilar uchun sanatoriy yo'llanmasining to'liq qiymatini to'lab, o'z sog'lig'ini mustahkamlash imkoniyati yaratilgan.

Kasaba uyushmasi a'zosi bo'lmagan fuqarolar ham bepul yo'llanma olishi mumkin. Vaqtincha ishsiz fuqarolarga hamda imtiyozli tabaqa vakillariga, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarga va yoshga doir nafaqadagi fuqarolarga ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan yo'llanmalar bepul berilmoqda. Mazkur agentlik tizimidagi 11 ta sanatoriyga navbatga olish tizimi Davlat xizmatlari markazlari bilan birgalikda hududlarda tashkil etilgan «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan amalga oshiriladi.



Zarif JOZILOV,
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining viloyat kengashi bo'lim mudiri.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 518 nusxada chop etildi. Buyurtma 128. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 dan.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

